

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

JAZO INSTITUTINING FALSAFIY VA AXLOQIY ASOSLARIGA KONSEPTUAL YONDASHUV

Shukurullayeva Gulchexra Nasrullayevna

O'zbekiston Milliy universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: nanni-juli@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-5258-3649>

Annotatsiya.

Maqolada jazo institutining falsafiy va axloqiy asoslari konseptual jihatdan tahlil qilinadi. Jazo tushunchasi aniqlashtiriladi, uni oqlashning asosiy nazariyalari — retributiv, konsekvensialist, aralash va kommunikativ yondashuvlar qiyosiy o'rganiladi hamda jazoni axloqan chegaralab turuvchi tamoyillar — qonuniylik, mutanosiblik, insonparvarlik va inson qadr-qimmati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: jazo instituti, jazo falsafasi, axloqiy asoslar, retributivizm, utilitarizm, inson qadr-qimmati, mutanosiblik, insonparvarlik, jinoyat huquqi.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ФИЛОСОФСКИМ И ПРАВСТВЕННЫМ ОСНОВАНИЯМ ИНСТИТУТА НАКАЗАНИЯ

Шукуроллаева Гулчехра Насруллаевна

Национальный университет Узбекистана, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье проводится концептуальный анализ философских и нравственных основ института наказания. Уточняется понятие наказания, в сравнительном аспекте рассматриваются основные теории его обоснования — ретрибутивная, консеквенциалистская, смешанная и коммуникативная, а также анализируются принципы, устанавливающие нравственные пределы наказания: законность, соразмерность, гуманизм и уважение человеческого достоинства.

Ключевые слова: институт наказания, философия наказания, нравственные основы, ретрибутивизм, утилитаризм, человеческое достоинство, соразмерность, гуманизм, уголовное право.

A CONCEPTUAL APPROACH TO THE PHILOSOPHICAL AND ETHICAL FOUNDATIONS OF THE INSTITUTION OF PUNISHMENT

Shukurullayeva Gulchexra Nasrullayevna

National University of Uzbekistan, Independent Researcher.

Abstract.

The article provides a conceptual analysis of the philosophical and moral foundations of the institution of punishment. It clarifies the concept of punishment, comparatively examines the major theories of its justification — retributive, consequentialist, mixed, and communicative approaches — and considers the principles that establish the moral limits of punishment, including legality, proportionality, humanity, and respect for human dignity.

Keywords: institution of punishment, philosophy of punishment, moral foundations, retributivism, utilitarianism, human dignity, proportionality, humanity, criminal law.

Kirish. Jazo — inson jamiyatining eng qadimiy va shu bilan birga eng munozarali ijtimoiy institutlaridan biridir. Uning o'ziga xosligi shundaki, jazo huquqbuzarga nisbatan davlat yoki vakolatli subyekt tomonidan qasddan zarar yoki azob berishni o'z ichiga oladi [5; 4-b.]. Aynan shu xususiyat jazoni boshqa ijtimoiy choralardan farqlaydi va uning axloqiy jihatdan oqlanishini zarur qilib qo'yadi.

Jazo institutining markazida chuqur axloqiy ziddiyat — jazoning “paradoksi” — yotadi. Bir tomondan, axloq va huquq insonga azob berishni, uning erkinligi va huquqlaridan mahrum qilishni qoralaydi. Ikkinchi tomondan, aynan davlat jinoyatchiga nisbatan ushbu mahrumiyatni (bu biror muhim narsadan, ne'matdan, huquqdan yoki imkoniyatdan bebahra qolish, mahrum bo'lish holatidir) qonuniy ravishda qo'llaydi. Shu bois “davlat qanday haq bilan jazolaydi?” degan savol jazo falsafasining asosiy muammosi bo'lib qoladi [4; 15-b.]. Bu savolga javob bermay turib, jazo instituti sof kuch ishlatish vositasiga aylanib qolish xavfi ostida turadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy huquqiy davlat jazoni faqat samaradorlik (jinoyatchilikni kamaytirish) nuqtayi nazaridan emas, balki axloqiy legitimlik nuqtayi nazaridan ham asoslashni talab qiladi. Inson huquqlari va qadr-qimmatiga urg'u kuchaygan bir davrda jazoning falsafiy va axloqiy asoslarini konseptual tarzda qayta ko'rib chiqish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning obyekti — jazo ijtimoiy-huquqiy institut sifatida; predmeti — jazoni oqlash va cheklashning falsafiy hamda axloqiy asoslari. Maqolaning maqsadi jazo institutining falsafiy-axloqiy asoslariga konseptual yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Quyidagi vazifalar belgilandi:

- jazo tushunchasi va belgilarini aniqlashtirish;
- uni oqlash nazariyalarini tahlil qilish;
- jazoning axloqiy ziddiyatlarini ko'rsatish;
- jazoni cheklab turuvchi axloqiy tamoyillarni asoslash.

Adabiyotlar tahlili va nazariy asos. Jazo haqidagi falsafiy mulohazalar antik davrga borib taqaladi. Platon jazoni ruhni davolovchi vosita sifatida talqin qilib, uning tuzatuvchi va tarbiyaviy funksiyasini ta'kidlagan [11; 12-b.]. Aristotel esa jazoni korrekativ (tuzatuvchi) adolat doirasida — buzilgan muvozanatni tiklash yo'li sifatida — ko'rib chiqqan [1; 45-b.]. Bu klassik qarashlar jazoning shunchaki qasos emas, balki axloqiy maqsadga ega ekanligini ilk bor asoslab bergan.

Ma'rifatparvarlik davrida Ch. Bekkaria jazoni ratsional va insonparvar asosda qayta ko'rib chiqishni taklif etdi: jazo qonun bilan belgilangan, muqarrar, mutanosib va shafqatsizlikdan xoli bo'lishi lozim [2; 22–23-b.]. I. Bentam bu yo'nalishni utilitar falsafa doirasida rivojlantirib, jazoni "yovuzlik" deb atadi va uni faqat u oldini oladigan kattaroq zarar bilan oqlash mumkin degan qoidani ilgari surdi [3; 158-b.].

Nemis mumtoz falsafasida I. Kant va G. Gegel retributiv yondashuvni asoslab, jazo jinoyatning oqibati emas, balki uning axloqiy zaruriy javobi bo'lib, jinoyatchining oqilona va mas'ul subyekt ekanligini tan oladi [8; 99-b.] [6; 141-b.]. Kantning insoniylik formulasi — insonga hech qachon faqat vosita sifatida munosabatda bo'lmaslik — jazo etikasining asosiy o'lchoviga aylandi [8; 67-b.].

XX asrda X. Xart jazoning ta'riflovchi belgilarini tizimlashtirdi va uni oqlashning aralash nazariyasini taklif etdi: jazo institutining umumiy oqlanishi utilitar (ijtimoiy himoya), uning taqsimlanishi esa retributiv (ayb va loyqlik) asosda bo'lishi kerak [5; 231-b.]. Zamonaviy tadqiqotlarda kommunikativ va tiklash nazariyalari ham rivojlanmoqda.

Mazkur manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, jazo falsafasi boy nazariy an'anaga ega bo'lsa-da, uning turli yondashuvlari ko'pincha alohida-alohida yoritiladi.

Ushbu maqola jazo institutining falsafiy va axloqiy asoslarini yaxlit, konseptual tarzda tizimlashtirishga qaratilgan.

Material va metodlar. Tadqiqot nazariy-falsafiy va huquqiy tahlilga asoslangan sifat xarakteriga ega. Unda quyidagi metodlardan foydalanildi: konseptual tahlil (jazo tushunchasi va uning belgilarini aniqlashtirish); qiyosiy metod (oqlash nazariyalarini solishtirish); dialektik metod (jazoning ichki ziddiyatlarini ochish) hamda falsafiy-huquqiy manbalarni mazmuniy tahlil qilish metodi.

Tadqiqotning manbaviy bazasini jazo falsafasiga oid klassik va zamonaviy asarlar (Platon, Aristotel, Bekkaria, Bentam, Kant, Gegel, Xart), xalqaro huquq hujjatlari [7; 5-b.] hamda insonparvarlik va mutanosiblikka oid huquqiy tamoyillar tashkil etdi. Xulosalar mantiqiy-nazariy tahlil yo'li bilan shakllantirildi.

Tadqiqotning chegaralari sifatida shuni ta'kidlash kerakki, ishda jazo umumiy falsafiy-axloqiy institut darajasida tahlil qilindi; muayyan jazo turlari yoki sanksiyalarning empirik samaradorligi o'rganilmadi. Tahlil asosan G'arb falsafiy an'anasiga tayangan bo'lib, milliy va an'anaviy axloqiy qarashlar alohida tadqiqot predmeti bo'lishi mumkin.

Natijalar. Konseptual tahlil jazoni boshqa ijtimoiy choralardan farqlovchi bir necha ta'riflovchi belgini ajratish imkonini beradi:

1. Jazo zarar, mahrumiyat yoki ko'ngilsizlik yuklashni o'z ichiga oladi;
2. Jazo huquqbuzarlik (me'yor buzilishi) uchun qo'llaniladi;
3. Jazo aybdor deb topilgan shaxsga qaratiladi;
4. Jazo qasddan, ongli ravishda yuklanadi;
5. Jazoni vakolatli organ belgilangan tartibda qo'llaydi [5; 6–7-b.].

Ushbu belgilar jazoni qasos, zo'ravonlik yoki o'zboshimcha ta'zirdan farqlab, unga institutsional va huquqiy xarakter beradi.

Bundan ko'rinadiki, jazo tasodifiy yoki shaxsiy reaksiya emas, balki tartibga solingan ijtimoiy amaliyotdir. Uning institutsional tabiati jazoni ham asoslashni, ham cheklashni talab qiladi: vakolatli subyekt o'z harakatini umumiy qoidalar va axloqiy tamoyillar bilan oqlashi shart. Aynan shu nuqta jazoni falsafiy-axloqiy tahlil predmetiga aylantiradi.

Jazoni oqlashning falsafiy nazariyalari. Jazoni oqlashning uchta asosiy yo'nalishini ajratish mumkin. Retributiv nazariya jazoni o'tmishga — sodir etilgan jinoyatga — qaratilgan axloqiy javob deb biladi: jinoyatchi jazoga loyiq bo'lgani uchun jazolanadi. Konsekvensialist (utilitar) nazariya jazoni kelajakka — uning ijtimoiy foydali oqibatlariga (umumiy va maxsus preventsiya, tuzatish, jamiyatni himoya qilish) — qarab oqlaydi. Aralash nazariya esa bu ikki yondashuvni birlashtirib, jazo institutining maqsadini ijtimoiy himoyada, uning taqsimlanishi va o'lchamini esa ayb hamda loyqlikda ko'radi.

Bundan tashqari, zamonaviy falsafada kommunikativ nazariya ajralib turadi: unga ko'ra, jazo — jamiyat tomonidan jinoyatga nisbatan bildirilgan axloqiy qoralash (censure) va me'yorlarni qayta tasdiqlash vositasidir [12; 9-b.].

Bu yondashuv jazoning ramziy-ma'naviy o'lchamini oldingi o'ringa qo'yadi va uni aybdorga yo'naltirilgan axloqiy murojaat sifatida talqin qiladi [4; 27-b.]. Har bir nazariya jazoning muayyan jihatini yoritadi, hech biri yakka holda to'liq oqlash bera olmaydi — bu integratsiyalashgan yondashuv zaruratini ko'rsatadi.

Alohida o'rin tutuvchi yondashuv — reabilitatsion (tuzatish-davolash) modelidir.

U jinoyatchini jazolashdan ko'ra "davolash" va isloh qilishga urg'u berib, jinoyatni kasallik yoki ijtimoiy moslashmaslik kabi talqin qiladi. Ushbu yondashuv insonparvar ko'rinsa-da, jiddiy tanqidga uchragan: ayrim faylasuflar ta'kidlashicha, jinoyatchini "bemor" deb qarash uning oqilona va mas'ul subyekt ekanligini inkor etadi, bu esa aslida qadr-qimmatni kamsituvchi munosabatga aylanishi mumkin [9; 3-b.].

Bundan tashqari, "tuzatish" maqsadi chegaralanmagan bo'lsa, u muddatsiz va nomutanosib aralashuvlarni oqlab, shaxs erkinligiga tahdid soladi. Shu bois reabilitatsiya jazoning muhim, ammo yagona va chegarasiz asosi bo'la olmaydi — u adolat va mutanosiblik tamoyillari doirasida amal qilishi lozim.

Jazoning axloqiy ziddiyatlari. Jazoning asosiy axloqiy muammosi uning qasddan zarar yuklashi bilan bog'liq. Utilitar oqlash jinoyatchini boshqalarni tiyish vositasi sifatida ishlatish xavfini tug'diradi, bu esa Kantning insoniylik formulasiga zid keladi [8; 69-b.]. Retributiv oqlash bu muammoni hal qilishga urinadi. Jinoyatchi o'z qilmishi uchun, boshqalar manfaati uchun emas, jazolanadi, deydi, lekin u jazoning qasosdan farqini asoslashda qiyinchilikka duch keladi.

Ikkinchi ziddiyat — jazoning qat'iyligi va insonparvarlik o'rtasidagi muvozanat. Haddan ortiq yumshoq jazo adolat va preventsiya talablarini qondirmasa, haddan ortiq qattiq jazo inson qadr-qimmatini kamsitib, shafqatsizlikka aylanadi.

Uchinchi ziddiyat — individual mas'uliyat va ijtimoiy sharoitlar o'rtasida: jinoyatga olib kelgan ijtimoiy omillarni to'liq e'tiborsiz qoldirish jazoni rasman adolatli, ammo mohiyatan nohaq qilishi mumkin. Bu ziddiyatlar jazoni axloqan cheklab turuvchi tamoyillarni zarur qilib qo'yadi.

Jazoning axloqiy asoslaridagi yana bir chuqur masala — erkin iroda va mas'uliyat muammosidir. Retributiv oqlash jinoyatchining o'z harakati uchun axloqan javobgar, ya'ni erkin va oqilona tanlov qilishga qodir subyekt ekanligini nazarda tutadi. Biroq deterministik qarashlar inson xatti-harakati biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan belgilanishini ta'kidlab, mutlaq mas'uliyat g'oyasini shubha ostiga oladi. Bu munozara jazo falsafasi uchun prinsipial ahamiyatga ega: agar mas'uliyat to'liq inkor etilsa, retributiv oqlash zaminini yo'qotadi va jazo faqat ijtimoiy himoya vositasiga aylanadi. Aksariyat zamonaviy yondashuvlar mo'tadil pozitsiyani egallaydi. Insonning cheklangan, ammo real tanlov erkinligini tan olgan holda, mas'uliyatni jazoning zaruriy, lekin yagona bo'lmagan asosi sifatida saqlaydi. Shu tariqa mas'uliyat tushunchasi axloqiy javobgarlik va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olish o'rtasida ko'priq vazifasini o'taydi.

Jazoni cheklab turuvchi axloqiy tamoyillar. Yuqoridagi tahlil jazo institutini axloqan oqlangan doirada saqlab turuvchi bir qator asosiy tamoyilni aniqlash imkonini beradi [10; 15–16-b.]. Quyidagi jadvalda ushbu tamoyillar va ularning mohiyati umumlashtirilgan.

1-jadval. Jazoni cheklab turuvchi asosiy axloqiy tamoyillar

Tamoyil	Mohiyati
Qonuniylik	Jazo faqat oldindan qonunda belgilangan asosda va tartibda qo'llaniladi (nullum crimen, nulla poena sine lege).
Aybdorlik	Jazo faqat aybi isbotlangan shaxsга nisbatan joriy etiladi; obyektiv aybsiz javobgarlikka yo'l qo'yilmaydi.
Mutanosiblik	Jazoning og'irligi jinoyatning ijtimoiy xavflilligi va aybdorlik darajasiga mos bo'ladi.
Insonparvarlik	Jazo qiynoq, shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi xarakterda

	bo'lmashligi shart.
Inson qadr-qimmat	Aybdor jazo jarayonida ham oqilona va mas'ul subyekt sifatida hurmat qilinadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari jazo institutini axloqan oqlashda birorta yakka nazariya yetarli emasligini ko'rsatadi. Sof utilitarizm jinoyatchini vosita sifatida ishlatish xavfini tug'diradi; sof retributivizm jazoning ijtimoiy maqsadi va sharoitlarini e'tiborsiz qoldiradi. Kommunikativ yondashuv ramziy o'lchamni ta'kidlasa-da, amaliy chegaralarni to'liq belgilamaydi. Shu bois zamonaviy jazo falsafasi integratsiyalashgan, ko'p o'lchamli yondashuvga intilmoqda.

Bunday yondashuvda jazoning turli asoslari bir-birini to'ldiradi va cheklaydi. Utilitar mulohazalar jazo institutining umumiy maqsadini (ijtimoiy himoya) belgilaydi. Retributiv tamoyillar uni ayb va loyqlik doirasida chegaralaydi. Insonparvarlik va qadr-qimmat tamoyillari esa jazoning yuqori chegarasini o'rnatadi [7; 5-6-b.].

Bu muvozanat jazoni ham samarali, ham axloqan oqlangan qiladi.

Konseptual nuqtayi nazardan jazoning axloqiy legitimligi uchta shartga bog'liq:

- oqlash asosining aniqligi (jazo nima uchun qo'llanmoqda);
- chegaralashning qat'iyligi (jazo qanchagacha borishi mumkin);
- qo'llash jarayonining haqqoniyligi (adolatli sud va protsessual kafolatlar).

Ushbu uch shartning buzilishi jazoni axloqan oqlanmagan holatga — qasos, zo'ravonlik yoki o'zboshimchalikka — aylantiradi.

Bu xulosalar milliy huquq tizimi uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Jinoyat qonunchiligidagi qonuniylik, adolat, aybdorlik va insonparvarlik tamoyillari jazoning falsafiy-axloqiy asoslarining normativ ifodasidir. Ularni izchil va uyg'un tarzda qo'llash jazo institutining axloqiy legitimligini ta'minlaydi.

Konseptual jihatdan yana bir muhim farqlashni ta'kidlash lozim: jazo institutini umumiy darajada oqlash va muayyan holatda ayrim jazoni oqlash — bu ikki alohida masala. Institut darajasida jazo tizimi nima uchun umuman mavjud bo'lishi kerak degan savol ijtimoiy himoya va me'yorlarni saqlash orqali hal qilinsa, muayyan ish darajasida bu shaxsga shu jazoni berish haqqoniymi degan savol ayb, loyqlik va mutanosiblik tamoyillari asosida hal etiladi. Ushbu ikki darajani aralashtirib yuborish — masalan, umumiy preventsiya maqsadida ayrim shaxsni loyqligidan ortiq jazolash — axloqiy xatolikka olib keladi [5; 231-232-b.].

Shu bois konseptual yondashuv jazoni oqlashning turli darajalarini aniq ajratishni va har birida tegishli tamoyillarni qo'llashni talab qiladi. Bu farqlash, shuningdek, rahm-shafqat va jazoni yumshatish institutlarining axloqiy o'rnini tushunishga ham yordam beradi. Ular adolatni inkor etmaydi, balki uni insonparvarlik bilan to'ldiradi.

Xulosa va tavsiyalar. O'tkazilgan tahlil jazo instituti o'z tabiatida axloqiy ziddiyatga ega bo'lgani sababli, uning falsafiy va axloqiy asoslarini aniq belgilash zarurligini ko'rsatdi. Jazo faqat samarali bo'lishi kifoya emas — u axloqan oqlangan bo'lishi kerak. Shu asosda quyidagi xulosa va tavsiyalar shakllantirildi:

- Jazoni oqlashda birorta yakka nazariyaga emas, balki utilitar, retributiv va kommunikativ o'lchamlarni uyg'unlashtiruvchi integratsiyalashgan konseptual yondashuvga tayanish;
- Jazoning axloqiy legitimligini ta'minlovchi uchta shartni — oqlash asosining aniqligi, chegaralashning qat'iyligi va jarayonning haqqoniyligini — izchil kafolatlash;
- Qonuniylik, aybdorlik va mutanosiblik tamoyillarini jazoni cheklab turuvchi asosiy axloqiy kafolat sifatida mustahkamlash;
- Inson qadr-qimmat va insonparvarlik tamoyillarini jazoning yuqori chegarasi sifatida qat'iy saqlash, qiynoq va kamsituvchi munosabatga yo'l qo'ymaslik;
- Jazo siyosatida aybdorni oqilona va mas'ul subyekt sifatida qarashni — tuzatish va reintegratsiya imkoniyatini — ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, jazo instituti o'zining falsafiy va axloqiy asoslari aniq belgilangan, uning maqsadlari inson qadr-qimmat va adolat tamoyillari bilan muvozanatlashtirilgan taqdirdagina huquqiy davlat idealiga xizmat qiladi. Konseptual yondashuv aynan shu muvozanatni ta'minlashning nazariy poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotle. *Nicomachean Ethics* / transl. by H. Rackham. – London: William Heinemann; New York: G. P. Putnam's Sons, 1934. – Book V. – URL: <https://www.perseus.tufts.edu/hopper/text.jsp?doc=Perseus%3Atext%3A1999.01.0054%3Abook%3D5>.
2. Beccaria C. *Dei delitti e delle pene*. – Livorno: Marco Coltellini, 1764. – URL: https://books.google.com/books/about/Dei_delitti_e_delle_pene.html?id=IMSAtrFSYaYC.

3. Bentham J. An Introduction to the Principles of Morals and Legislation. – London: T. Payne, 1789. – URL: <https://oll.libertyfund.org/titles/bentham-an-introduction-to-the-principles-of-morals-and-legislation>.
4. Duff R. A. Punishment, Communication, and Community. – New York: Oxford University Press, 2001. – 245 p. – DOI: 10.1093/oso/9780195104295.001.0001. – URL: <https://academic.oup.com/book/50504>.
5. Hart H. L. A. Punishment and Responsibility: Essays in the Philosophy of Law. – Oxford: Oxford University Press, 1968. – 271 p. – URL: https://books.google.com/books/about/Punishment_and_Responsibility.html?id=UwVMB_2ClcIC.
6. Hegel G. W. F. Grundlinien der Philosophie des Rechts. – Berlin: In der Nicolaischen Buchhandlung, 1821. – 355 S. – URL: https://books.google.com/books/about/Grundlinien_der_Philosophie_des_Rechts.html?id=IbbnhBFkqvcC.
7. United Nations. Universal Declaration of Human Rights: adopted by the United Nations General Assembly, Resolution 217 A (III), 10 December 1948. – URL: <https://europe.ohchr.org/universal-declaration-human-rights>; International Covenant on Civil and Political Rights: adopted by UN General Assembly Resolution 2200A (XXI), 16 December 1966. – URL: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>.
8. Kant I. Grundlegung zur Metaphysik der Sitten. – Riga: Johann Friedrich Hartknoch, 1785. – URL: <https://www.gutenberg.org/files/5682/5682-h/5682-h.htm>; Kant I. Die Metaphysik der Sitten. – Königsberg: Friedrich Nicolovius, 1797. – URL: <https://www.cambridge.org/core/books/abs/practical-philosophy/metaphysics-of-morals-1797/9264C19E216588A065AD0786DCD15BAF>.
9. Lewis C. S. The Humanitarian Theory of Punishment // 20th Century: An Australian Quarterly Review. – 1949. – Vol. 3, No. 3. – P. 5–12. – URL: <https://scholarsarchive.byu.edu/irp/vol13/iss1/11/>.
10. O'zbekiston Respublikasi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan. – Qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarlari prinsiplari. – URL: <https://lex.uz/docs/-111453>.
11. Plato. Laws / transl. by R. G. Bury // Plato in Twelve Volumes. – Cambridge, MA: Harvard University Press; London: William Heinemann, 1967–1968. – URL: <https://www.perseus.tufts.edu/hopper/text?doc=Perseus%3Atext%3A1999.01.0166%3Abook%3D9>;
12. Plato. Gorgias / transl. by W. R. M. Lamb. – Cambridge, MA: Harvard University Press; London: William Heinemann, 1967. – URL: <https://www.perseus.tufts.edu/hopper/text?doc=Perseus%3Atext%3A1999.01.0178%3Atext%3DGorg.%3Asection%3D449a>.
13. Von Hirsch A. Censure and Sanctions. – Oxford: Clarendon Press; New York: Oxford University Press, 1993. – 133 p. – ISBN 0-19-825768-6. – URL: <https://pegasus.law.columbia.edu/record/331572>.